



TURKIY XALQLAR FOLKLORIDA RO‘MOL OBRAZINING RAMZIY MOHIYATI

Egamberdiyeva Zilola Mamasoli qizi

Andijon davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada turkiy xalqlar folklorida uchraydigan ramziy obrazlarning mazmuni, xususan ro‘mol timsolining semantik vazifasi tahlil qilinadi. O‘zbek folklorshunosligidagi ilmiy manbalar asosida ro‘molning “oila” va “rozilik” ramzi sifatidagi barqaror ma’nosi yoritilib, uning xalq qo‘shiqlari va marosim an’analariidagi funksiyasi izohlanadi. Shuningdek, ro‘mol obrazining turkiy xalqlar uchun umumiy ramz sifatida shakllanganligi va bu ramz yozma adabiyot hamda zamonaviy qo‘shiqlarda ham davom etayotganligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: folklor, ramz, ro‘mol obrazi, marosim an’analari, xalq qo‘shiqlari, oila ramzi, mushtaraklik.

Özet: Bu makalede Türk halklarının folklorunda görülen sembolik imgelerin içeriği, özellikle de mendil (örtü) simgesinin semantik işlevi incelenmektedir. Özbek folklorbilimindeki akademik kaynaklar temelinde mendilin “aile” ve “rıza, razılık” sembolu olarak taşıdığı kalıcı anlam açıklanmakta, ayrıca halk türküleri ile tören geleneklerindeki işlevi değerlendirilmiştir. Bununla birlikte, mendil imgesinin Türk halkları için ortak bir kültürel sembole dönüştüğü ve bu sembolun yazılı edebiyat ile modern şarkılarda da yaşamaya devam ettiği bilimsel dayanaklarla ortaya konulmaktadır.

Anahtar Kelimeler: folklor, sembol, mendil imgesi, tören gelenekleri, halk türküleri, aile sembolü, ortaklık.

Turkiy xalqlar folklori — ko‘p asrlik taraqqiyot jarayonida shakllangan, mazmunan yuksak, struktura jihatidan rang-barang og‘zaki an’analarning



majmuasidir. Doston, qo'shiq, maqol, ertak va afsonalar kabi janrlar turkiy xalqlarning turli hududlarda yashashiga qaramay, ularning badiiy tafakkurida mushtarak obrazlar, ramzlar va mifopoetik motivlar shaklida namoyon bo'ladi. Ushbu mushtaraklik turkiy xalqlarning madaniy yaqinligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida maydonga chiqadi. Ramzlarning qo'llanish miqyosi barcha turkiy xalqlarning folklor tizimida muhim struktural birlik sifatida mavjud bo'lib, doston va qo'shiqlar kabi janrlarda o'xshash semantik yadroda aks etadi. Ramzlar xalq kechinmalari, arxetipik tasavvurlari hamda qadimiy mental modellarni jonlantirib, turkiy xalqlarni yagona madaniy makonga birlashtiruvchi funksional vosita sifatida xizmat qiladi.

O'zbek folklorshunosligida xalq qo'shiqlaridagi ramziy qatlamlar M.Alaviya, A.Musaqulov, Sh.Turdimov, D.O'rayeva, M.Ro'ziyeva¹ kabi tadqiqotchilar tomonidan ilmiy asosda tahlil qilingan. Ayniqsa, Sh.Turdimovning "Xalq qo'shiqlarida ramz" asari mazkur masalaning nazariy-metodologik asoslarini o'rganishda alohida ahamiyatga ega. Muallif ramz tushunchasining mohiyatini yoritish bilan birga, uning mifologik qatlam va parallelizm hodisalari bilan uzviy bog'liqligini ilmiy dalillar asosida asoslaydi hamda xalq qo'shiqlarida uchraydigan o'zak ramziy obrazlarni to'qqiz tipga ajratadi.²

Ushbu tasnifda ro'mol obrazi xalq qo'shiqlari hamda marosim folklorida keng qo'llanuvchi yetakchi ramzlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Sh.Turdimov ro'molning semantik yadrosi "oila" tushunchasi bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Bu

¹ Алавия М. Ўзбек халқ қўшиқлари. – Т.: "Фан", 1959; Мусақулов А. Ўзбек халқ лирикасининг тарихий асослари: ф.ф.д. дисс. автореф. – Т., 1995; Шу муаллиф. Ўзбек халқ лирикаси. – Т.: "Фан", 2010. – 306 б.; Турдимов Ш. Поэтические символы в узбекских народных лирических песнях. АҚД. – Т., 1987; Шу муаллиф: Халқ қўшиқларида рамз. – Т.: "Фан", 2020. – 192 б.; Ўраева Д. Ўзбек халқ лирик қўшиқларида параллелизм ларнинг характери ва бадий-композицион вазифалари: ф.ф.н. дисс. автореф. – Т., 1993. – 20 б.; Шу муаллиф. Ўзбек мотам маросими фольклорининг генезиси, жанрий таркиби ва бадийяти: ф.ф.д. дисс. автореф. – Т., 2005. – 35 б.; Рўзиева М.Ўзбек халқ қўшиқларида ранг символикаси: Филол.фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс... автореф. – Т.,2017. – 46 б.;

² Турдимов Шомирза. Халқ қўшиқларида рамз. – Т.: "Фан",2020. – Б. 114-134.



fikrni to‘liq qo‘llab-quvvatlash mumkin, chunki ro‘mol ramzi nafaqat o‘zbek, balki turk folklorida ham aynan oilaviy barqarorlik, poklik, rozilik va uy birligi kabi ma’nolarni ifodalovchi ramziy belgiga aylangan.

Nikoh to‘yi marosimlari turkiy xalqlarning eng qadimiy urf-odatlarini o‘zida mujassam etgan marosim tizimi bo‘lib, undagi asosiy udumlar ko‘p hollarda ro‘mol va ro‘molcha orqali bajariladi. Qiz va yigitning bir-biriga rozilik bildirish jarayoni ham ko‘pincha ro‘mol vositasida ramziy shaklga ega bo‘ladi. “Alpomish” va “Yakka Ahmad” dostonlarida ro‘molga oid urf-odatlar buni tasdiqlaydi.

Turk folklorida ham mazkur ramziy qatlam keng tarqalgan. Selçuk Kürşad Koca o‘zining “Türk kültüründe sembollerin dili”³ nomli ilmiy tadqiqotida nikoh marosimiga xos ramzlarni tizimli ravishda sanab o‘tadi. Masalan, Sharqiy Anadolu hududlarida qiz sevgan yigitga uzuk yoki taroq kabi shaxsiy buyumini oq ro‘molcha ichiga solib berishi — uning oila qurishga tayyorligini anglatuvchi ramziy ishora hisoblanadi. Diyarbakirning ayrim mahallalarida qiz ro‘molchaga o‘z ismining bosh harfini yozib, uni yigitga topshiradi. Bingöl viloyatida esa qiz yigitga o‘z ro‘molini yuboradi; yigitning roziligi mavjud bo‘lsa, u ro‘molchasini qizning ro‘moli ichiga solib qaytaradi. Unashtirish marosimida kuyov tomonidan bosh-oyoq kiyim berilishi, qiz tomonidan esa ro‘molcha va ro‘mol taqdim etilishi ham qadimiy ramzlarning marosimiy shaklda davom etayotganidan dalolat beradi.

Shunday qilib, o‘zbek va turk folkloridagi manbalar tahlili ro‘mol obrazining har ikki xalq madaniyatida “oilal” tushunchasini ifodalovchi barqaror va umumturkiy ramz sifatida shakllanganini yaqqol namoyish etadi.

Xalq og‘zaki ijodida yetakchi ramz sifatida shakllangan “ro‘mol” obrazi bugungi zamonaviy qo‘shiqlarda ham o‘zining arxaiik ma’nosini yo‘qotmagan holda qo‘llanilmoqda. Ro‘molning asosiy semantik mazmuni “oilal”, “rozilik”, “muhabbat

³ Selçuk Kürşad Koca. Türk kültüründe sembollerin dili: Doktora Tezi. – Mayıs., 2012. 81 s



va sadoqat”, “nikohga tayyorlik” tushunchalariga borib taqaladi. Endi mazkur ramzning zamonaviy qo‘shiqlardagi talqinlarini misollar asosida ko‘rib chiqamiz.

Ro‘molimni teng bo‘laman,

Ammamga kelin bo‘laman.

Ammam kelin qilmasa,

Otashga tushib ketaman.

Keltirilgan ushbu parcha xalq qo‘shiqlarining yorqin namunalaridan biridir. Sh.Turdimov o‘z ishida bu qo‘shiqda keltirilgan asosiy mazmunni ochiqlaydi. Uning sharhiga ko‘ra, qizning “ro‘molni teng bo‘lish” niyati — fotihani buzish, ya’ni o‘z xohishiga zid tarzda unashtirilgan yigit bilan nikohni rad etish ramzidir. Qizning “ammamga kelin bo‘laman” deyishi esa subyektiv istak va ichki maylga asoslangan nikohni bildiradi. Demak, folklorda ro‘mol nafaqat rozilik ramzi, balki rozilikdan voz kechish belgisi sifatida ham qo‘llanadi.

Yuqoridagi holat turk qo‘shiqlarida ham aks etadi.

Eşarbini yan bağlama

Ben söyleyim, sen ağlama

Zalim anan bana vermez

Qo‘shiqdagi “Eşarbini yan bağlamak”, ya’ni ro‘molni yon tomondan bog‘lash sog‘inch va ichki kechinmani bildiruvchi ramziy ishoradir. Qo‘shiq mazmunida qiz va yigitning oila qurish niyati mavjud, biroq ona bu birlashuvga monelik qilmoqda. Bu holat turk va o‘zbek folkloridagi umumiy arxaik motiv “ota-oni roziligi va nikohdagi to‘siqlar”ning davomiyligini tasdiqlaydi.

Bilmiyorum ne zaman geri geliceğim,



Alacağım o yerlerden sana mor yazma.

Bu qo‘shiqda ro‘mol sadoqat va so‘zga vafodorlik timsoliga aylangan. Qizning otasi yigitni ma‘qullamagan bo‘lsa-da, yigitning "senga ro‘mol olaman" deyishi, birlashtiruvchi ramz bo‘lgan ro‘molni kelajakdagi oila umidi sifatida taqdim etadi. Bu holat ro‘molning vafodorlik va sabr ma‘nolarini kengaytiradi.

Xalq qo‘shiqlarida ro‘molning qo‘ldan chiqishi oila qurilmasligi, yigitning so‘ziga vafo qilmagani yoki qizdan foydalanganini anglatadi. Mazkur ramzni Sh.Turdimov quyidagi to‘rtlik orqali keltiradi:

–Ro‘molimni ber baqqa,

Hazilingni qo‘y aqqa, illila yorim, illila.

Bu to‘rtlikda oshiq yigitning va‘dasidan qaytishi, qizning esa aldangan tuyg‘ulari, g‘ururi va dardi ro‘mol orqali ifodalanadi. Ro‘molning yigitga berilishi yoki qaytarilishi — munosabatning tasdiqlanishi yoki rad etilishini bildiruvchi qadimiy semantik modeldir.

Yazmana yaz adını

Yağdıma sal yağdını

Ben sözümden dönersem

Kır kolum, kanadımı

Ro‘mol yoki ro‘molchaga ism yozish turkiy xalqlarda abadiylik, nikoh va so‘zga sodiqlik ramzi sanalgan. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, turklarda ro‘molchaga ismining bosh harfini yozib bolaga berishi oila qurish taklifini anglatadi. Bu an‘ana qo‘shiqlariga ham singib ulgurgan. Keltirilgan bu qo‘shiqda yigit bergan va‘dasiga sodiq ekanligini, qizning ro‘moliga ismini yozishini aytmoqda.

Armon ulfat bo‘ldimi sizga?



Sevgi kulfat bo'ldimi sizga?

Achchiq yoshlar to'libdi ko'zga

Qolibsiz-ku ko'k ro'mol o'rab.

Shu o'rinda bir holat e'tiborimni tortdi: ko'k rang o'zida qanday ramziy ma'no tashiydi? Folklorshunos A.Tilovov tadqiqotlarida ko'k rang Ko'k-Tangri inonch-e'tiqodining xalq og'zaki ijodidagi tajalliysi ekanini, murodga eltuvchi vosita sifatida kelishini dalillaydi.⁴ Yirik rassom Leonardo da Vinchi "Rangtasvir haqida traktat" kitobida yetakchi ranglar sifatida olti rangni belgilab, ko'k havo ramzi ekanini tasvirlaydi. Ko'k ranggi ayrim manbalarda motam ma'nosini anglatadi. D.O'rayeva motam bilan bog'liq "aza kiyish" va "aza yechish" kabi rasm-rusumlarda ranglarning ma'nosiga alohida e'tibor qaratadi. "Aza yechish" da ayollar oq, ko'k, qora rangdagi liboslarini va ro'mollarini yechib tashlab, motam tutishni to'xtatganliklarini ma'lum qiladi.⁵ Shuningdek, Saodat Israilova ham shunday yozadi: "Surxondaryo hududidagi nikoh to'ylarida ko'k rangiga bo'lgan e'tiborni ko'rish mumkin. Ma'lumotlarga ko'ra, kelin tushirgan qaynona "Kelin salom"da keliniga: "Sen yashaydigan o'tov – qora, osmon–ko'k, dala-dasht– yashil, ular ichida alohida ko'zga tashlanib yurishing uchun qizil ko'ylak kiydirdim. Iloyo, sen ko'k ko'ylak kiyma, qoraga botma, yuzing ko'ylagingdek qizil bo'lib yursin" deb niyat bildirar ekan. Bundan shuni anglashimiz mumkinki, ko'k leksemasining "osmon" ma'nosidagi shakldoshi va bir o'rinda "aza" ma'nosidagi konnotativ semasi yuzaga chiqqan".⁶ Ko'rinadiki, ko'k rangi turli ramziy ma'noni ifodalab kelishi mumkin, faqat qay ma'noda ekanligini gap mazmuni orqali anglaymiz. Bu misralarda ko'k motam, ayriliq ma'nosini ifodalasa, ko'k ro'mol pand yegan, armon bilan yashayotgan qizning timsoli sifatida talqin etiladi. U boshidagi ro'molini

⁴ Тилавов А. От образи: тарих, таҳлил ва талқин // Монография. – Т., 2018. – Б. 5.

⁵ O'raeva, D.2004. O'zbekiston motam marosimi folklori. Toshkent: Fan.120 b.

⁶ Israilova Saodat. Ranglarning etnolingvistik va milliy-madaniy xususiyatlari. Lingvistika. 2022 vol.3(1) 55 b



yechmadi, oilasiga, sevgisiga hiyonat qilmadi. Aksincha sadoqati evaziga vafosizlikka uchradi. Shu sabab boshidagi ro‘mol ko‘k rangda ekanligi aytilmoqda.

Ro‘molimning uchini,

Tugmaganga tugdiray.

Qoshimga o‘sma qo‘yib,

Kuymaganni kuydiray.

Bu parchani Sh.Turdimov tahlil qiladi. Ularning fikriga ko‘ra, qizning ro‘molning uchini “tugdirishi” yigitning taklifiga rozi bo‘lganini bildiradi. Ro‘molning yigit qo‘liga o‘tishi nikoh va oila qurishning timsolidir.

Zimdan mani kuzatib,

Ro‘molini tuzatib,

Tabassumin uzatib,

Mani o‘rtab ketdi yor.

Avvalgi misolda ro‘mol uchining tugilishi yigit taklifiga rozi ekanligini bildirsa, bu misralarda ro‘mol qizning uyatchan qarashlari, muhabbat ishorasi ekanini bildiruvchi poetik obraz sifatida qo‘llanadi. Ro‘molni tuzatish ko‘pincha ko‘ngil aloqasi va yashirin mehr ramzi bo‘lgan.

Tushib qolsin yo‘llarida shoyi ro‘moli-ey,

Topib olib, bog‘lab qo‘yay yo‘llarimizni.

Bu qo‘shiqda ro‘mol ikki inson taqdirining bog‘lovchisi, ya’ni “yo‘l birligi” ramziga aylanadi. Yigitning ro‘molni olish va yo‘llarini bog‘lash istagi nikohning ruhiy birlashuvini bildiradi.



Boshimda ipak ro‘molim,

Yanog‘imda bir dona xol.

Bu misrada boshdagi ro‘mol sadoqat va hayo timsoli. SH.Turdimov xol obrazining ramzi haqida ham to‘xtaladi. Bunga ko‘ra, xol go‘zallik va sadoqat ramzidir. Qizning “yorim bor, lafzi halol” deyishi ro‘mol bilan bevosita nikoh barqarorligini ifodalaydi.

Daryolarning sohilida qoldi ro‘molim,

Ro‘molimning uchlarida jon-u jahonim.

Sizni sevmok, sizga kuymok taqdir azaldir,

Yo‘llaringiz chaqir ekan, tildi tovonim.

SH.Turdimovning ramzlar tipologiyasiga ko‘ra, daryo oshiqlik va ma'shuqlik, erlik va yigitlik, qizlik va ayollik, ko‘ngillar o‘rtasida chegara ramzidir. Qizning ro‘molining daryo bo‘yida qolishi uning yetolmagan muhabbati, puch orzulari va armonini ifodalaydi. Yo‘llardagi chaqir tovonini tilishi esa ruhiy og‘riqning poetik ifodasidir.

Keltirilgan misollar shuni ko‘rsatadiki, xalq og‘zaki ijodidagi ro‘mol obrazi zamonaviy qo‘shiqlarda ham o‘zining semantik barqarorligi, arxaik ildizlari, marosimiy asoslari va ramziy vazifasini saqlab qolgan. Bu holat ro‘molning o‘zbek va turk madaniyatida nikoh, muhabbat, sadoqat, hijron va oilaviy qadriyatlar bilan bog‘liq o‘zak ramz sifatida davom etayotganini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Israilova Saodat. Ranglarning etnolingvistik va milliy-madaniy xususiyatlari. Lingvistika. 2022 vol.3(1) 55 b
2. Muxammadaliyeva Shaxzoda Maxmud qizi. Ramz va uning lisoniy talqini



3. Selçuk Kürşad Koca. Türk kültüründe semboller dili: Doktora Tezi. – Mayıs., 2012. 312 s
4. O'raeva, D. 2004. O'zbekiston motam marosimi folklori. Toshkent: Fan. 120 b.
5. Турдимов Шомирза. Халқ қўшиқларида рамз. – Т.: “Фан”, 2020. – Б. 114-134.
6. Ўраева Д. Ўзбек халқ лирик қўшиқларида параллелизм ларнинг характери ва бадиий-композицион вазифалари: ф.ф.н. дисс. автореф. – Т., 1993. – 20 б.;
7. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8320689>